O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2024 - yil 19 - mart 81-10-212-Q/24 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 6-martdagi

140-10-2-Q/24-sonli qarori haqida

Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 6-martdagi “Viloyat Avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasining tizim tashkiloti foydalanishidagi yer maydonini ajratib berish to‘g‘risida”gi 140-10-2-Q/24-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda Yer kodeksining 5-moddasi va “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-, 10-, 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1 Toshkent viloyati hokimining 2024-yil 6-martdagi “Viloyat Avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasining tizim tashkiloti foydalanishidagi yer maydonini ajratib berish to‘g‘risida”gi 140-10-2-Q/24-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Ushbu qarorga asosan, Toshkent tumani, Iftihor MFY, Binokor ko‘chasi hududida joylashgan “Toshkent tumani yo‘llardan foydalanish” unitar korxonasi foydalanishidagi qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan 0,50 gektar yer maydoni viloyat Avtomobil yo‘llari bosh boshqarmasiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratib berilsin.

3. Kadastr agentligining Davlat kadastrlari palatasi Toshkent viloyati boshqarmasi tuman filiali (O.Xoldorov) mazkur qarorga muvofiq tuman yer fondiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin hamda kadastr hujjatlarini belgilangan tartibda rasmiylashtirsin.

4. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**